IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

XAYRINISO MAJIDXONOVA – YEVROPA TA'LIMINI OLGAN ILK O'ZBEK ZIYOLILARIDAN BIRI

Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi
Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi
E – mail: mamuraliyevikromjon8@gmail.com
Telefon: +998948675151

Ilmiy rahbar: **Madraximov Zoxid Sharofovich**
Tarix fanlari nomzodi, professor
https://doi.org/10.5281/zenodo.24052590

Annotatsiya: XX asr boshlarida yangi davrni boshlab bergan jadidchilik harakatining eng nozik va eng xatarli qatlami ma'rifatli ayollar edi. Ular orasida Yevropa ta'limini olib, yurtiga qaytgan va xalqni ma'naviyatli va sog'lom fikrlovchi qilishda o'zining hissasini qo'shgan Xayriniso Majidxonova alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolada aynan uning mardliklarga to'la hayoti va matbuot olamida ko'rsatgan jasoratli chiqishlari va ma'rifat uchun kurashi yoritib beriladi.
Kalit so'zlar: Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova, Berlin, Botu, Cho'lpon, Germaniya, jadidchilik, Turkiston, qatag'on, aksinqilobchi.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Turkiston mintaqasida vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyondalarining maqsadi, jamiyatni o'rta asrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish bo'lgan. Shu jadid ma'rifatparvarlari ichida yurt taraqqiyotiga munosib hissasini qo'shishni maqsad qilgan ayol jadidlar ham bor edi. Ayniqsa shu ayollar orasida 1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun "Ko'mak" jamiyati tomonidan yuborilgan talabalardan biri Xayriniso Majidxonova alohida ajralib turadi. U ham boshqa jadidlar kabi o'zining qarashlari, matbuotdagi chiqishlari orqali, o'zining barchaga ibrat bo'lishi mumkin bo'lgan ilm-fanni o'rganishdagi sa'y-harakatlari bilan millatning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg'otishga, istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo'lgan edi.

1922 – yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun Turkiston Respublikasi "Ko'mak" jamiyati tomonidan yo'llangan 16 nafar talaba orasida Xayriniso Majidxonova alohida ajralib turar edi.

Xayriniso Majidxonova 1905 – yil 25 – dekabrda Toshkent shahrida oqsoqol Majidxon Jalilov xonadonida dunyoga kelgan. Bu ma'rifatparvar inson Markaziy Rossiyaning Moskva, Sankt Peterburg kabi qator shaharlariga safar qilib, jadid g'oyalari bilan tanishgandi. [1. – B. 46 – 47.]. U safar chog'larida olgan taassurotlari ta'sirida qizlariga zamonaviy bilim berishga, xorijiy tillarni o'rgatishga harakat qilgan. Toshkentdagi mutaassib ruhoniylar hatto unga "Majid o'ris", "Majid kofir" deb laqab qo'yganlar, qizlari maktabga paranji kiymasdan borganlari uchun qoralaganlar. Xayriniso shunday og'ir ahvolga qaramay, o'qimishli tatar, rus, nemis qizlari bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Birinchi o'zbek xotin – qizlar bilim yurtida o'qiyotgan opasi Oyposhsha esa unga yozuv – chizuvni o'rgatgan. So'ngra Miroboddagi yangi maktabda o'qib, rus va nemis tillarini o'rgana boshladi. [2. – B. 115 – 116.]. Munavvar qori va Saodat Yenikyeva kabi ma'rifatparvarlardan saboq oldi, zohiran oddiy ko'ringan bu ta'lim esa uning ichida butun bir uyg'onish olamini yaratdi. "Ezilgan millatlar, qorong'ilikda qolgan yurtini kelgusida chin bilim bilan yoritmoq uchun bu yil xorijga ketgan talabalar orasida qizim Xayriniso ham bor edi. Bilim uchun uzoq ellarga birinchi o'zbek qizini yuborish sharafi, shukrlar bo'lsunkim, menga

nasib bo‘lmish”, deb xursand bo‘lgan edi Xayriniso Majidxonovaning otasi. Vatan uchun qaytgan bu qiz — aslida Turkistondagi ilk modern ayollardan biri edi.

Xayriniso 1922 – yilning oxiri – 1923 – yilning boshlarida bir guruh o’zbek yigit va qizlari bilan birga Germaniyaga o’qishga yuboriladi. Berlinda bir muncha vaqt davomida nemis tilini o’rgangach, 1924 – 1926 – yillarda Maryam Sultonmurodova bilan birga Dramshdat shahridagi o’qituvchilar seminariyasida va ayni paytda tibbiyot kurslarida o’qiydi, nemis tili va adabiyotini o’rganadi. 1927 – yili yozgi ta’til vaqtida Xayriniso Maryam Sultonmurodova bilan Parijga boradi. O’z davrida insoniyat madaniyatining poytaxtlaridan biri bo’lgan bu shaharda yashab turgan yurtdoshlari – buxorolik Ahmad Naim va Turkiston Muvaqqat hukumatining sobiq bosh vaziri, muhojir Mustafo Cho’qayevlar bilan uchrashadi. Aslida bu uchrashuv yoshlarga katta taassurot qoldirgan bo‘lsa-da, siyosiy maqsadga ega emas edi. Ammo, keyinchalik aynan shu daqiqalar, shu tasodif Xayrinoso taqdiriga “josuslik” tamg‘asi bo‘lib yopishadi. Yurtdoshlari ularni Parijning kino, teatr singari madaniyat o’choqlari bilan tanishtiradilar. Berlinga qaytgach, Xayriniso bir necha muddat Avstraliyaning Vena shahrida ham bo’ladi.

Yevropaga borib ta’lim olayotgan o’zbek qizlarining nomi butun Turkistonga yoyildi. Hattoki Turkistonning taraqqiyparvar shoirlari – Cho’lpon, Botu, otasi Majidxon Dumaning maqola va she’rlarida ularning ismlari faxr va iftixor bilan tilga olindi. Jumladan, Botu 1922 – yil noyabr oyi boshlarida bir guruh turkistonlik talabalar qatori o’zbek qizi Xayriniso Majidxonovaning Berlinga o’qishga borishi munosabati bilan yozgan “Kichkina armug’onim” she’rida unga quvonch bilan oq yo’l tilab bunday yozadi:

Qora turmush changalidan qutulib,
Erk chechagi taqa olgan kuchli qiz,
Eski odat sanamlarin parchalab,
Erk – tangriga sajda qilgan ruhli qiz.
Yo’ling to’g’ri, ortga boqma, keta ber,
Ilgarilash ashulasin aytaber!

Germaniyada olti yil davomida ta’lim olgan Xayriniso 1928 – yilda O’zbekistonga qaytib, to 1937 – yil 13 – sentyabrga qadar kasaba uyushmalari Markaziy Qo’mitasi xodimlari jumhuriyat boshlang’ich va o’rta ta’lim o’qituvchilarining dam olish uyida shifokor bo’lib ishlaydi. Uning Yevropa tibbiyoti va malakali vrachlaridan olgan ko’rsatmalari mehnatkashlarni oyoqqa turg’izishda juda qo’l keladi. [2. – B. 116 – 117.]. Nemis tilidan o‘qigan materiallarini tarjima qildi, ilmiy izlanishlar boshladi. Uning jiyani shunday eslaydi: “U keltirgan tibbiy kitoblarni tarjima qilardi. Shunchalik intiluvchan ediki, ilmiy tadqiqotga tayyor edi.”[3.].

1922 – yili “Turkiston” gazetasida Xayrinisoning “Uyg‘on Turkiston” sarlavhali maqolasi chop qilinadi. Unda endigina 17 yoshni qarshilagan qizning Vatan taraqqiyoti haqidagi qarashlari aks etadi. Bu maqola o‘shanda Sovet hukumatining ham sergak tortishiga, Turkiston yosh jadidlarining ma’naviy qudratidan xavfsirashlariga sabab bo‘ladi. Maqolada o‘tgan asrning boshida yashagan o‘zbek qizining tarixiy tafakkuri qanchalik ulkanligini ko‘rish mumkin. Uning Vatan kelajagi yonida o‘zini qanchalik mas’uliyatli sezishidan taajjubga tushasiz. Oradan qariyb yuz yil o‘tsa-da, maqolada ilgari surilgan fikrlarning ba’zilari bugun ham dolzarbligi e’tiborni tortadi. Jumladan maqolada shunday jumlalar bor edi: “Turkistonning dunyo savdo maydonida tutqon vaziyati XVII asrdan beri tuban darajada qolib keldi. Bu asr umuman musulmon mamlakatlarining tanazzul davri bo‘lib, tanazzulning ham ko‘p sababi karvon yo‘llarining ahamiyati ketib, g‘arblilar tarafidan dengiz yo‘llarining yuksaltirilishi edi. XIX asrda ham Turkiston G‘arbiy Ovrupodan uzoq bo‘lg‘onlig‘i uchun, taraqqiyot tomonidan boshqa musulmon mamlakatlaridan ham tuban darajada turdi. XX asrning boshida ham qo‘shnimiz bo‘lgan Eron

xalqi siyosiy fikrlar bilan sug‘orilib, o‘z elida sanoat turg‘izish va chetlarning ta’siridan qutulish yo‘lida qon to‘kkani muddatda bizning Turkiston tinch uxlamoqda edi... Faqat Russiyadan temir yo‘l kelib, savdo maydoni kengaydi...

Bundan ochiq anglashiladirki bizning moziyimizni porloq qilg‘on – elimizdan o‘tgan karvon yo‘li bo‘lsa, istiqbolimizni porloq qilg‘uchi, elimizni jahon savdo maydonig‘a tutoshdirg‘uvchi ulug‘ temir yo‘ldir.

Ular bizning savdomizni kengaytur, bizga boyliq va obodliq berur va o‘zimizga katta sanoat turg‘azishga imkon ochar.

Turkiston iqlimining qizg‘inlig‘i va yerining munbit(hosildor)ligi uni doim qiymatlik hosilot beruvchi ziroat mamlakati ravishida qoldirg‘usidir. Ikkinchi tomondan Turkiston tog‘larining ma’danga boylig‘i bunda tog‘ sanoatining yuksalishiga sabab bo‘lg‘usidir. Bu ikki asos – hayotni ta’min qilish yo‘llarining yuksalishi natijasida (paxta zavodlari, ipak fabriklari, ma’dan zavodlari) katta sanoatning boshqa xillari ham yuksalgusidirlar. Turkistonning tabiiy boyliqlarini ishlata olg‘ali, katta sanoatni turg‘izgali va natijada yangi temir yo‘llar o‘tkazgali kuchi yetsun hozirgi xo‘jalikdan ortib qolib to‘plang‘on boyliqning bo‘lishi kerak. Hozirgi ziroatning mahsulotini ortdirish uchun birdan-bir chora bo‘lsa ziroatda har xil yangi ishlab chiqorish usullari, yangi qurollar va mashinalarni qo‘llanishidir.

Hozir bu qurollarni Ovrupolilardan oltun barobariga olishga to‘g‘ri kelganidek, kelgusida ham har xil sanoat qurollarini Ovrupolilardan sotib olishg‘a majbur bo‘lamiz. Mashina qancha qimmat bo‘lsa ham uni qo‘llashimiz kerak. Chunki, ul bizning boylig‘imizni ortdira oladir. Buni G‘arb davlatlarining hayotida mashinaning tutqon o‘rni isbot qiladir» deydi. [5.]. Bu 17 yoshli qiz tomonidan ilgari surilgan fikrlar zamirida ochiqdan ochiq erkinlikka da’vat yotar edi.

1937 – yilning 13 – sentabri. Bu kun Xayrinosoning hayotini emas — butun bir avlod taqdirini sindirgan kun edi. U “Germaniyada o‘qib, josus bo‘lib qaytgan” degan uydirma ayblov bilan qamoqqa olinadi. Uyida tintuv o‘tkazilib: barcha xatlar, kundaliklar, kitoblar, nemis adabiyoti, Qodiriy va Cho‘lpon asarlari, tibbiy qo‘llanmalar — hammasi musodara qilinib, keyin yondiriladi. Bu — shunchaki jinoyat ishi emas, bir ayolning ilmiy merosini yo‘q qilish edi.. Xayriniso MajidxonovaO‘z SSR JK 57 I (Vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj), 62 (aksilsovet targ‘ibot), 67 (aksilinqilobiy tashkilotga a’zolik) moddalari bilan aybdor deb topildi[4] Bu haqiqat edi. Ammo haqiqat totalitar tuzumga hech qachon kerak bo‘lmagan.

1938 – yilning 9 – oktabrida unga o‘lim jazosi chiqarildi. Hukm o‘sha kunning o‘zidayoq bajarildi. Millat yana bir faol, yurt istiqlolini o‘ylovchi ziyolisidan ajraldi. Shunday qilib, endigina 32 bahorni qarshilagan, Yevropaning eng ilg’or mamlakatlaridan birida o’qib qaytgan birinchi o’zbek qizlaridan Xayriniso Majidxonova stalincha totalitar tuzumning begunoh qurboni bo’ladi. Qatag‘on yillarida Xayrinisoning familiyasi hatto oilasini ham qo‘rqitardi. Uning qatl qilinganini sovet organlari “sir” qildi, oila esa “jinoyatchi qarindoshning” nomini tilga olishga jur’at etolmasdi. Shu bois u bir necha o‘n yillar davomida o‘z xalqining tarixida yo‘q ayol sifatida yashadi.

Faqat 1999 – yilning 7 – oktabrida — mustaqillik davrida — u oqlanib, adolat tiklandi. Ammo bir savol hanuz ochiq: Agar Xayriniso o‘lmasdan qolganida, o‘zbek tibbiyoti va pedagogikasi bugun qay darajada bo‘lardi?

Xulosa. Turkistondagi jadidchilik harakatining yetuk ayol namoyondalaridan biri Xayriniso Majidxonova Turkistondagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etib, o‘z orzu maqsadlarini amalga oshirishga dadillik bilan kirishdi. U diniy va dunyoviy bilimlarni yetarli darajada egallab, o‘z xalqiga astoydil xizmat qila boshladi. O‘z davlatining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgan edi, shu sababli ham jamiyatdagi muammolar va kamchiliklarni matbuotdagi chiqishlari orqali ifoda etib, ularni

bartaraf etish bo‘yicha bir qator tavsiyalarini berdi. Xayriniso Majidxonovaning qarashlari, millatni ongini uyg‘otishga da’vat qiluvchi fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatqulov D., Irzayev B. Tanilmagan ayol jadidlar: Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova. – Toshkent, 2024. – 73 b.
2. Турдиев Шерали. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Т., 2006. – 256 б.
3. Zilola G’aybullayeva “Biri otilgan, ikkinchisi surgun qilingan: Germaniyada o‘qigani uchun qatag'on qilingan o'zbek ayollari”– URL: https://kun.uz/05396037?q=%2F05396037
4. Maftuna Karimova “Birgina maqolasi bilan Sovet hukumatini tahlikga solgan o'zbek qiz- u qanday qilib qatag,on qurboni bo’lgan edi?’’/O’zA- URL:https://uza.uz/oz/posts/birgina maqolasi-bilan-sovet-hukumatini-tahlikga-solgan-ozbek-qiz-u-qanday-qilib-qatagon-qurboni bolgan-edi_344840
5. Ирзаев Баҳром. Туркистон жадидларининг «Кўмак» ташкилоти [Матн] / - Тошкент : Тошкент ислом университети, 2016. - 148 б.
6. Ирзаев, Баҳром. Хорижда ўқиган ўзбек жадид аёлларининг “айби” нима эди // Янги Ўзбекистон, 2023-йил 8-март. № 46. Б.6.
7. Қор кўйнида лолалар (қатағон килинган аёллар хақида очерклар). //Масъул муҳаррир: Б.Шарипов/. - Тошкент, «Академия», 2001 й. - 213 б.